

Date: 19th May-2025

**DARS JARAYONLARIDA MULTIMEDIALI ILOVALARDAN SAMARALI
FOYDALANISH (1-SINF MISOLIDA)**



Mualliflar:

Mamarasulova Qandinsa Maxammatsait qizi

Turdiyeva Laylo Xakimjonovna

Namangan viloyati, Mingbuloq tumani 29-sonli
umumi o'rta ta'lif maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1-sinf o'quvchilarining dars jarayonida multimediali ilovalardan foydalanan orqali bilimlarni samarali o'zlashtirishlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qitishdagi o'rni va ahamiyati, loyiha faoliyati asosida interaktiv darslar tashkil etish metodlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: multimedia texnologiyalari, interaktiv dars, loyiha usuli, virtual muhit, ta'limda raqamlı resurslar, vizualizatsiya, didaktik ilovalar, sun'iy intellekt yordami, boshlang'ich ta'lif.

Kirish:

Zamonaviy ta'lif tizimida texnologiyalarni o'qituv jarayoniga integratsiyalashning o'rni yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilimga bo'lgan qiziqishi va psixologik tayyorgarligini hisobga olgan holda, dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanan muhim ahamiyat kasb etadi. Multimedia texnologiyalari yordamida darslar nafaqat samarali, balki interaktiv va qiziqarli o'tadi

Asosiy qism:

1. Multimediali ilovalarning didaktik imkoniyatlari

Multimedia - bu turli axborot turlarining: matn, audio, video, animatsiya, grafika, giperhavolalar shaklida birlashtirilgan holda taqdim etilishini anglatadi. Multimediana foydalangan holda o'quvchilarni rang-barang vizual manzaralar, tovushli izohlar orqali dars mazmuniga jalb etish mumkin. 1-sinf o'quvchilari uchun bu, ayniqsa, qiziqarli va esda qolarli bo'ladi.

Masalan, "Smartboard"lar orqali interaktiv topshiriqlar, "PowerPoint" taqdimotlarida animatsiyalangan tushunchalar, "Kahoot" orqali test shaklida o'yinli baholash metodlari o'quvchilar faoliyatini rag'batlantiradi.

2. STEAM va loyiha asosidagi yondashuvni integratsiyalash

Multimedia ilovalari yordamida STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi boshlang'ich sinfda ham muvaffaqiyatli joriy etilishi mumkin. Masalan, 1-sinfda "Tabiatni asraymiz" mavzusida loyiha topshirig'ini berib, o'quvchilarni ekologik animatsiyalar, raqamlı hikoyalar yaratishga jalb etish orqali ularning kreativ fikrlashini rivojlantirish mumkin.

Date: 19th May-2025

Bunday yondashuvlar o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarga mustaqil yondashish, yechim topish, raqamli vositalardan ongli foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi.

3. Interfaol dasturlar va sun'iy intellektdan foydalanish

Bugungi kunda sun'iy intellekt asosidagi ilovalar - "Quiver", "Google Lens", "SpeechTexter" kabi dasturlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’limiy muhitni boyitadi. Masalan, matnni ovozga aylantiruvchi vositalar o‘quvchilarning nutqiy rivojiga, qulq eshitish xotirasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. AR (Augmented Reality) texnologiyalar yordamida dars mavzulari jonlantiriladi.

4. Matematika va savod o‘rgatishda multimedia

Matematika darslarida interaktiv tangramlar, raqamli geometriya qurilish ilovalari, savod o‘rgatishda esa so‘z yasalishini ko‘rsatuvchi animatsion video materiallar o‘quvchilarning tafakkurini vizual asosda mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa TIMSS va PIRLS xalqaro baholash tizimlariga tayyorlovda ijobiy rol o‘ynaydi.

5. Baholash va refleksiya uchun raqamli vositalar

Dars yakunida "Wordwall", "Quizizz", "Nearpod" kabi platformalarda o‘zlashtirish darajasini aniqlovchi testlar va refleksiya topshiriqlari o‘quvchilar fikr yuritish darajasini tahlil qilishga imkon beradi. Bu vositalar yordamida o‘quvchining bilim darjasini aniq ko‘rsatkichi bilan baholanadi

Xulosa:

1-sinf darslarida multimediali ilovalardan foydalanish o‘quvchilarni faollikka undaydi, bilimni vizual va eshitish orqali mustahkamlash imkonini beradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, ijodkorlik, axborotni qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Multimediatedan foydalanish, ayniqsa, loyihaviy metod, STEAM yondashuvi, 4K kompetensiyalar (kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash)ni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa zamonaviy o‘quvchining kelajak hayotga tayyor bo‘lishi uchun asosiy yo‘nalishlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.P. Stoylova, A.M. Pishkalo. Boshlang‘ich matematika kursi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1991.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonova M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyo asoslari. – T.: Fan, 2006.
3. Marzano R. “Classroom Instruction That Works”, ASCD, 2001.
4. Mishra & Koehler. Technological Pedagogical Content Knowledge Framework (TPACK).
5. www.khanacademy.org; www.nearpod.com; www.edutopia.org